MINTAQALARDA SANOAT TIZIMINI BOSHQARISHDA ISHLAB CHIQARISHNING INNOVATSION O‘SISHI VA BOSHQARISHNING YANGICHA TIZIMI

N.A.Allasheva
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21791950

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sanoat korxonalaridagi boshqaruv mexanizmlari samaradorligini miqdoriy va sifat mazmunidan baholanishi alohida qiziqishni uyg‘otadi. Bundayin murakkab va ko‘p tomonlamali masalani hal qilish nafaqat ko‘rsatkichlar tizimi, sanoatini rivojlantirish bo‘yicha mazkur tarmoq dasturi va uning elementlari o‘z ichiga mintaqadagi sanoat tarmog‘ining hozirgi rivojlanganlik darajasi va uning istiqboldagi imkoniyatlari haqida yoritilgan

КАЛИТ СЎЗЛАР

modernizatsiya, sanoat korxonalari, raqobatbordosh, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot

ABSTRACT

In this article is the assessment of the effectiveness of management mechanisms in industrial enterprises from the content of quantitative and qualitative. The solution of the complex and multilateral issue of Bundayin is covered not only by the system of indicators, the program of this industry for the development of the industry and its elements on the current level of development of the industrial sector in the region and its prospects.

KEY WORDS

modernization, industrial enterprises, competitive, socio-economic development, innovative economy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представляет оценка эффективности механизмов управления на промышленных предприятиях по количественному и качественному содержанию. Решение такой сложной и многогранной задачи включает в себя не

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

модернизация, промышленные предприятия, конкурентоспособность, социально-экономическое

только систему показателей, отраслевую программу развития промышленности и ее элементы, но и освещение текущего уровня развития отрасли в регионе и ее перспективных возможностей

развитие, экономика

инновационная

KIRISH

So‘nggi o‘n yillik ichida O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida modernizatsiyalashni jadallashtirish masalalari milliy xo‘jalik tizimida mos holdagi bir qancha masalalarni hal qilish vositalarini izlab topishga diqqat-e’tiborni kuchaytiradi. Shuning uchun hozirgi kunlarda ayniqsa, mintaqalarda sanoat tizimini boshqarishda ishlab chiqarishning innovatsion o‘sishi va bu korxonalarda mehnat faoliyatini olib borayotgan jamoalarning innovatsion faolligini kuchaytirishga qaratiladigan sanoat korxonasini boshqarishning yangicha tizimini yaratish zarur bo‘lmoqda.

mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirishga birinchi o‘rinda tashqi va ichki omillar ta’sir ko‘rsatishi hamda ular asosan to‘rt - iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy ta’sir guruhlaridan iborat bo‘lishi ta’kidlab o‘tilagn.. Mintaqa sanoatini rivojlantirish sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan S.Yu.Glazyev[1], R.S.Grinberg[2], A.I.Tatarkin[3] kabi MDH davlatlari olimlari o‘zlarining ilmiy izlanishlarida mintaqa sanoat majmuini boshqarish va uni intensiv rivojlantirish jarayonlarining bosh omili sifatida innovatsiyalarni va innovatsion boshqaruv metodlarini ko‘rsatib o‘tgan.

Taniqli iqtisodchi-olim M. Porter[4] o‘zining 2004-yilda “Strategning beshta qaltis xatosi” nomli asarini nashr qildirdi. Uning bu asarida “...hamma eng yaxshisi bo‘lishni istaydi, lekin buning uchun noyob bo‘lish zarurdir” deb ta’kidlagan g‘oyasi mintaqa sanoatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish borasida juda o‘rinli bo‘lib hisoblanadi – chunki bugungi kunda nafaqat mintaqa sanoatini boshqarish, balki umuman olganda biznesning istalgan sohasini boshqarish ancha takomillashib, raqamlashtirish jarayonlarining tobora keng yoyilishi menejment usullari va g‘oyalarini ham yangi bosqichga olib chiqib, boshqaruvning yangicha g‘oyalari va metodlarini ishlab chiqish tobora murakkablashib bormoqda. Shuningdek, M.Porter mintaqa sanoatini innovatsion rivojlanishini boshqarish jarayonlarida sanoat klasterlarini rivojlantirish zaruriyatini ta’kidlab o‘tgan va bunda u sanoat korxonalari

[1]Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – М, 1993. – с. 310.
[2]Гринберг Р. Российская структурная политика между неизбежностью и неизвестностью. // Вопросы экономики, 2008, № 3. –С. 58.
[3]Татаркин А.И. Промышленная политика: генезис, региональные особенности и законодательное обеспечение. / А.И.Татаркин, О.А.Романова. // Экономика региона, 2014, № 2. – С. 9
[44]Портер М. Пять смертных грехов стратега. // Секрет фирмы, 2004. –С. 60.

muntazam ravishda innovatsiyalarni joriy etish bilan yuqori darajadagi mehnat unumdorligini ta’minlay oladi deb hisoblaydi [5].

Mintaqa sanoatining rivojlanishida klaster nazariyasidan foydalanish g‘oyasini tadqiqotchi M.Enrayt yanada rivojlantirra borib, bunda u mintaqa sanoatini boshqarish, uni rivojlantirishda tarixiy shart-sharoit, biznes yuritish madaniyatining turli-tumanligi, ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari muhim ahamiyatga ega deb uqtirib o‘tadi. M.Enrayt o‘z ilmiy ishlarida mintaqa sanoatining innovatsion rivojlanishida klasterlar katta ahamiyatga ega deb hisobladi va bunda sanoat klasterlarini a’zo firmalarning geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashishi mintaqa sanoatini boshqarish uchun juda qulay imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatib o‘tgan.


Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga o‘tishda bizning fikrimizcha, sanoat korxonalaridagi boshqaruv mexanizmlari samaradorligini miqdoriy va sifat mazmunidan baholanishi alohida qiziqishni uyg‘otadi. Bundayin murakkab va ko‘p tomonlamali masalani hal qilish nafaqat ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lishini, balki ularning guruhlanishini ham ko‘zda tutadi. Bu har bir sanoat korxonasining ishlab chiqarish, tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini eng to‘la holda qayta tuzib chiqishga, o‘z hayotiy siklini muvaffaqiyat bilan uzaytirish ichki xo‘jalik mexanizmini qayta tashkil etishga yordam beradi. Mana shu bilan sanoat korxonasining ham o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilishi, ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan kelib chiquvchi tendensiyalar, umumiy tamoyillar va yondashuvlarga rioya qilinishiga ham erishiladi.

Sanoatni rivojlantirishni boshqarishning ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘rganish davomida shu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadiki, bunda klasterlash siyosatini oqilona amalga oshirish orqali hududlar sanoatining raqobatbardoshliligini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini mustahkamlash yo‘li bilan sanoat tizimini innovatsion asoslarda rivojlantirish o‘zining samarali natijalarini ko‘rsatadi. Shuni e’tiborga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida sanoatning innovatsion rivojlanishida uning tashabbuskori sifatida davlatning ishtiroki katta ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini ishlab chiqishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan eng muhim jihatlariga dasturning maqsadi to‘g‘ri va mintaqadagi mavjud imkoniyatlarga mos holda belgilanishi, dasturning asosiy vazifalari, mintaqa sanoati tarmoqlarining yo‘nalishlarini aniq belgilash, dasturni moliyalashtirish manbalari, dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar (prognoz ko‘rsatkichlari) kabilar kiritiladi. Bunda dasturning maqsadini to‘g‘ri

[5]Porter M. Cluster and the New Economics of Competition. // Harvard Business Review. November-December. 1988. P.78.

belgilash katta ahamiyatga ega bo‘lib, u bugungi innovatsion, yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish trendlarini inobatga olgan holda mintaqa sanoatining eng muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi lozimdir. Bu maqsadlarni belgilash va ularga erishishni ta’minlashda turli xil markaziy hokimiyat organlari (iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar va tashqi savdo yo‘nalishidagi vazirliklar), mahalliy hokimiyatlar, mintaqadagi sanoat korxonalari, klasterlar, biznes subyektlari faol ishtirok etishi lozim.



1-rasm. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining namunaviy tuzilmasi[6]

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini ishlab chiqishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan eng muhim jihatlariga dasturning maqsadi to‘g‘ri va mintaqadagi mavjud imkoniyatlarga mos holda belgilanishi, dasturning asosiy vazifalari, mintaqa sanoati tarmoqlarining yo‘nalishlarini aniq belgilash, dasturni moliyalashtirish manbalari, dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar (prognoz ko‘rsatkichlari) kabilar kiritiladi. Bunda dasturning maqsadini to‘g‘ri belgilash katta ahamiyatga ega bo‘lib, u bugungi innovatsion, yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish trendlarini inobatga olgan holda mintaqa sanoatining eng muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi lozimdir. Bu maqsadlarni belgilash va ularga erishishni ta’minlashda turli xil markaziy hokimiyat organlari (iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar va tashqi savdo yo‘nalishidagi vazirliklar), mahalliy hokimiyatlar, mintaqadagi sanoat korxonalari, klasterlar, biznes subyektlari faol ishtirok etishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat sohasining rivojlanishi jarayonlaridagi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi ko‘rsatkichi sanalib, bu haqidagi ma’lumotlarni 2.3-jadval misolida ko‘rib chiqamiz. Bu jadvalda keltirib o‘tilganidek, mintaqada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinayotgan davr mobaynida muttasil o‘sib kelgan. Jumladan, 2010-yilga nisbatan olib qaraganda mintaqa bo‘yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

[6] Muaalif tomonidan tuzilgan

hajmi deyarli 28,9-martaga o‘sib, 12 200,4 ming so‘mni tashkil qildi. Bu Qoraqalpog‘iston Rsepublikais hududida sanoat sohasining rivojlanish tendensiyasi kuchayib borganidan dalolat beradi. Tumanlar kesimida olib qaraganda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining eng yirik ko‘rsatkichlari Nukus shahri (23 275,0 ming so‘m), Taxiatosh (42 065,3 ming so‘m), Qorao‘zak (15 540,8 ming so‘m), Mo‘ynoq (12 991,8 ming so‘m), Qo‘ng‘irot (10 415,9 ming so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Mintaqa hududida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng sust tumanlar qatorida Bo‘zatov (2 749,7 ming so‘m), To‘rtko‘l (3 969,3 ming so‘m), Chimboy (4 152,2 ming so‘m), Xo‘jayli (4 154,7 ming so‘m) va Beruniy (4 779,7 ming so‘m) tumanlarini kiritish mumkin bo‘lib, bu tumanlar hududida sanoat korxonalari soni kamligi, borlari ham o‘z faoliyatini samarali tashkil etish borasida oqsayotganligini, bu tumanlarda sanoat sohasiga investitsiyalar kiritish talab darajasida emasligi kabi omillar bilan tushuntiriladi. Shuning uchun sanoat sohasini rivojlantirish bo‘yicha mazkur tumanlarda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish maqsadga muvofiq deb topiladi. Shuningdek, mintaqa hududida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 2010-yilga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan tumanlar qatorida Taxiatosh (2010-yilda sanoat sohasi mavju bo‘lmagani holda 2024-yilda 42 065,3 ming so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarishga erishilgan), Qorao‘zak (tumanlarini kiritish (2010-yildagi 94,7 ming so‘mlik ko‘rsatkichdan 2024-yildagi 15 540,8 ming so‘mlik ko‘rsatkichga erishilgan.Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturini amalga oshirish ko‘zlangan maqsadlarga erishilishini ta’minlashi talab qilinadi. Bunda mazkur dasturni amalga oshirishdan ko‘zda tutiladigan natijalar sifatida 5 yoki 10 yillik davr oxirida kutiladigan natijalarni rejalashtirish kerak bo‘ladi.

sanoatini rivojlantirish bo‘yicha mazkur tarmoq dasturi va uning elementlari o‘z ichiga mintaqadagi sanoat tarmog‘ining hozirgi rivojlanganlik darajasi va uning istiqboldagi imkoniyatlarini hisobga oladi. Bunda mintaqa sanoatini rivojlantirish dasturining asosiy maqsadlari sifatida:

- mintaqada iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- mahalliy aholi uchun sanoat tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- mintaqa sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- mintaqa sanoatining diversifikatsiyasini kuchaytirish;
- mintaqa sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

- sanoat sohasida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik iqtisodiyot talablariga rioya qilish;
- sanoat infratuzilmasini yaxshilash va sanoat sohasiga investitsiya kirituvchi sarmoyadorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish kabilar belgilanadi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tarmoq dasturi mintaqaning sanoatni rivojlantirish sohasidagi ichki imkoniyatlari va bu boradagi mavjud muammolarni hal qilish masalasini ko‘zda tutadi.

Sanoat sohasini rivojlantirish va uni boshqarish jarayonlarini har ikkala mamlakat o‘ziga xos tarzda amalga oshirdi. Misol uchun, Yaponiyada bu jarayon hukumat tarkibida maxsus tashkil etilgan yangi tuzilmalar yoki vakolatli organlar hamda tadbirkorlar va yirik korporatsiyalar birlashmalari darajalarida boshqarilgan bo‘lsa, Janubiy Koreyada Iqtisodiy rivojlanish boshqarmasi tashkil etilib, sanoatni rivojlantirish va boshqarish borasidagi barcha joriy ishlarni iqtisodiyot, sanoat va resurslar vazirliklari amalga oshirdi.

Tadqiqotchilar sanoatni osiyocha model vositasida rivojlantirishni boshqarish jarayonlarini tahlil qilishda shu narsaga alohida diqqat qaratdilarki, Yaponiyada bu boradagi sanoat assotsiatsiyalari tarixan iyerarxik ko‘rinishdagi piramida shaklida yuzaga kelgan bo‘lib, uning eng yuqori (“biznes dunyosi”) pog‘onasini Mitsiu va Mitsubisi singari yirik guruhlar tashkil qiladi. Bora-bora bu yirik guruhlar qatoriga yangi guruhlar qo‘shilib, hozirgi kunda Sanoat assotsiatsiyalari federatsiyasi, Yaponiya savdo-sanoat palatasi, Yaponiya ish beruvchilar assotsiatsiyasi va Yaponiya iqtisodiy rivojlanish qo‘mitasi butun yapon iqtisodiyotining ustunlarini tashkil qiladi. Ulardan quyida esa yirik sanoat guruhlari va okrporatsiyalarini o‘zida birlashtiruvchi sanoat assotsiatsiyalari turadi.

Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalasiga keyingi yillarda keng e’tibor qaratilishi hisobiga ushbu soha bilan bog‘liq jarayonlarning jadallashtirish va ularning statistik hisobini yuritish yo‘lga qo‘yildi. Ma’lumotlarning mavjudligini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasida innovatsion jarayonlarni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlarni sanoat taraqqiyotiniga ta’sirini baholashni amalga oshirib o‘tamiz. Innovatsion jarayonlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning 2015-yildan keyingi davr uchun mavjudligini hisobga olgan holda 2015-2024-yillar ma’lumotlari asosida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi.

Korrelyatsion tahlillar sanoat mahsuloti hajmini ilmiy tadqiqot va ishlanmalar iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblanilgan ish haqi bilan yuqori bog‘liqlikka (0,77) egaligini ko‘rsatmoqda. Ammo, ta’lim sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblanilgan ish haqining jami iqtisodiyot bo‘yicha

o‘rtacha oylik nominal hisoblanilgan ish haqiga nisabati teskari bog‘liqlik kuzatilmoqda. Bu tabiiyki ta’lim bilan ishlab chiqarish orasidagi bog‘liqlikni uzilganligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan ta’lim sifati bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ham asoslaydi, chunki har qanday ishlab chiqarishga inson kapitalini yetkazib beruvchi bu ta’lim sohasi hisoblanadi.

Sanoatni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni iborat bo‘ladi:

1. Mintaqa sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning ilgarilanma rivojlanishi uchun tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish;

2. Sanoat rivojlanishi sohasidagi strategik maqsadlar va vazifalarni belgilovchi institutlar faoliyatini takomillashtirish;

3. Innovatsion rivojlanish drayveri sifatida mintaqa sanoatini modernizatsiyalash uchun umumdavlat ustuvorliklari bilan pul-kredit va soliq siyosatini moslashtirish;

4. Mintaqa sanoati mahsulotlari eksporti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bojxona siyosatini takomillashtirish;

5. Mintaqa sanoati korxonalarini yuqori malakali kadrlar bilan barqaror ta’minlab borish tizimini vujudga keltirish.

Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalasiga keyingi yillarda keng e’tibor qaratilishi hisobiga ushbu soha bilan bog‘liq jarayonlarning jadallashtirish va ularning statistik hisobini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Йўлдошев Н.Қ., Мирсаидова Ш.А., Голдман Й.Д. Инновацион менежмент – Т.: ТДИУ. 2011. 286-б.; Зайнутдинов Ш.Н. Инновацион салоҳиятни ошириш стратегияси // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, 2011, 1 сон, сентябр;
2. Кадыров А. М. «Инновационный потенсиал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка». Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновация, конкурентоспособность, инвестиции».-Т., 23 апреля 2008 г.;
3. Климова Н. В., Ларина Н. В. Зарубежный опыт стимулирования инновационной деятельности в промышленном секторе. – Пенза : Фундаментальные исследования, 2014. – 1442–1446 с.
4. Л. П. Гончаренко, Ю. А. Артуюнов. Инновационная политика –М.: КНОРУС, 2009.-352.;

5. Мухитдинов Х.Т. Инновацион салоҳият шаклланиши ва ривожланишини таҳлил қилишга институтсионал ёндашув // Иқтисодиёт ва молия, 2012, 2 сон, 2-6 бетлар
6. Qalmuratov.B.S. “Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. T.: 2019. 15-b.
7. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятелностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: 2004, – 291 с.;
8. Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – М, 1993. – с. 310.
9. Гринберг Р. Российская структурная политика между неизбежностью и неизвестностью. // Вопросы экономики, 2008, № 3. –С. 58.
10. Татаркин А.И. Промышленная политика: генезис, региональные особенности и законодательное обеспечение. / А.И.Татаркин, О.А.Романова. // Экономика региона, 2014, № 2. – С. 9
11. Портер М. Пять смертных грехов стратега. // Секрет фирмы, 2004. –С. 60.
12. Porter M. Cluster and the New Economics of Competition. // Harvard Business Review. November-December. 1988. P.78.